


KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

1. Korruptsiya: uning tarixiy ildizlari, korruptsiyaga qarshi kurash usullari.
2. O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari
3. Korruptsiyaga qarshi kurashishda xalqaro qonunchilik asoslari





Korrupsiya va uyshgan
jinoyatchilikka qarshi
kurashish, shuningdek,
huquqbuzarliklarning oldini
olish masalalarini samarali
yechish ustuvor
vazifalarimizdan biri bo'lib
qoladi.

Shavkat Mirziyoev

Коррупциясиз келажак



Korrupsiya (lot. *Corrumpere* — buzmoq, “korroziya” so’zi ya’ni “chirish” yoki “zanglash”) terminini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlaridan o’zlarining shaxsiy manfaatlarini ko’zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishni anglatadi.



Ko’p xollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko’plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi.

Qadimgi yunon faylasufi ***Aristotel*** aytganki “Har qanday davlat tizimida – qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yoʻl bilan boyishga yoʻl qoʻymaslik lozim” degan.

Fransuz mutafakkiri ***Sharl Monteskʻe*** esa bu borada “Asrlar tajribasidan maʼlumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega boʻlgan shaxs, uni suisteʼmol qilishga moyil boʻladi va u maʼlum bir maqsadga erishmaguncha shu yoʻnalishda yuradi” degan fikrlarni bildirdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan malum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rligi qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilba "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" Quroni Karimda "Boshqalarning mulkini noxaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktlarni korrupsiyaning yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi.

Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar,
Aholi huquqiy savodxonligining pastligi,
Mamlakatda siyosiy vaziyatning notinchligi,
Ijro hokimyatining birligi tamoyilining buzilishi.



Korrupsiyani amal qilish darajalariga ko'ra quyi va yuqori korrupsiyaga ajratiladi:



Quyi korrupsiya xokimyat va boshqaruv organlarining o'rta va quyi darajalarida eng ko'p tarqalgan bo'lib, amaldorlar va fuqarolarning doimiy o'zaro munosabati bilan (ro'yxatdan o'tish, jarimalar, litsensiya va turli ruxsatnomalar olish kabilar) bilan bog'liq.

Yuqori korrupsiya ҳокимият xokimyat organlarida ishlovchi siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi hamda yuqori bahoga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish (qonunlarni, davlat buyurtmalarini lobbilash va qabul qilish, mulkchilik shakllarini o'zgartirish va shu kabilar) bilan bog'liq.

Korrupsiya – qanday muammolar sirasiga kiradi:

- *huquqiy* – 64,0 %;
- *iqtisodiy* – 51,0 %;
- *ijtimoiy* – 46,3 %;
- *axloqiy* – 45,8 %:



Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatning maqsadi – korrupsiya darajasini pasaytirish hamda fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarining korrupsiya bilan bog'liq taxdidlardan himoyalalanishni ta'minlashdan iborat. Bu siyosat davlatning korrupsiyaga qarshi qaratilgan, qarorlari, dasturlarida o'z ifodasini topadi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati – bu davlatning korrupsiyaning oldini olish, u paydo bo'lganda uni tugatish va cheklash borasidagi sai-harakatlari va aniq chora-tadbirlar majmuidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun xujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat Dasturlari va boshqa Dasturlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi PQ -2752-sonli «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi PQ -2752- sonli qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi tarkibi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi to'g'risidagi nizom.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O'RQ-516- sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldagi O'RQ-522- sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda)

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldagi O'RQ-522- sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 й., 2-son, 47-modda)

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 maydagi O'RQ-542- sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son)

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг коррупцияга қарши кураш борасидаги ҳужжатлари:

- 1) “Ҳуқуқий тартиботни сақлаш бўйича мансабдор шахсларнинг ҳуқ-атвор Кодекси” (БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 1979 йил 17 декабрда қабул қилинган);
- 2) Ҳуқуқий тартиботни сақлаш бўйича мансабдор шахсларнинг ҳуқ-атвор Кодексини самарали амалга оширилиши учун раҳбарий принциплар (БМТнинг Иқтисодий ва Ижтимоий Кенгаши резолюцияси билан 1989 йил 24 майда қабул қилинган);
- 3) Давлат мансабдор шахсларининг Халқаро ҳуқ-атвор кодекси (БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 1996 йил 12 декабрда қабул қилинган);
- 4) Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Халқаро тижорат операцияларида коррупция ва порахўрликка қарши кураш тўғрисидаги Декларацияси (БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 1996 йил 16 декабрда тасдиқланган);
- 5) Терроризмни молиялаштиришга қарши кураш тўғрисидаги халқаро конвенция (БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 1999 йил 9 декабрда қабул қилинган);

6) Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши кураш тўғрисидаги Конвенцияси (БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 2000 йил 15 ноябрда қабул қилинган);

8) Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош котибининг коррупцияга оид маърузаси (Вена, 2001 йил 8-17 май);

9) Коррупцияга қарши кураш бўйича чора-тадбирлар тўплами (2001 йил июнь);

10) Коррупцияга қарши кураш чоралари. Пулни тозалашга қарши кураш чоралари. Жиноятчилик ва одил судлов: XXI аср чорловига жавоблар тўғрисидаги Вена декларациясини амалга ошириш ҳаракат Режаси (БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 2002 йил 15 апрелда қабул қилинган)

11) Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши кураш тўғрисидаги Конвенцияси (БМТ Бош ассамблеясининг Резолюцияси билан 2003 йил 31 октябрда қабул қилинган).

Европа Кенгаши ва Европа Иттифоқининг коррупцияга қарши кураш борасидаги ҳужжатлари:

- 1) Европа Кенгашининг коррупция учун жиноий жавобгарлик тўғрисидаги Конвенцияси (Страсбург, 1999 йил 27 январь);
- 2) Европа Кенгашининг коррупция учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик тўғрисидаги Конвенцияси (Страсбург, 1999 йил 9 сентябрь);
- 3) Европа Кенгашининг жиноий фаолиятдан олинган даромадларни тозалаш, аниқлаш, олиб қўйиш ва мусодара қилиш тўғрисидаги Конвенцияси (Страсбург, 1990 йил 8 ноябрь);
- 4) Коррупцияга қарши курашнинг 20 та принципи (Европа Кенгаши Вазирлар Маҳкамаси томонидан қабул қилинган 1997 йил 6 ноябрь);

5) Давлат хизматчилари учун Модель хулқ-атвор кодекси (Европа Кенгаши Вазирлар Маҳкамаси томонидан қабул қилинган 2000 йил 11 май);

6) Сиёсий партияларни ва сайлов кампаниясини молиялаштиришда коррупцияга қарши ягона қоидалар (Европа Кенгаши Вазирлар Маҳкамаси томонидан қабул қилинган 2003 йил 8 апрель);

7) Молиявий тизимдан пулни тозалаш мақсадларида фойдаланишга йўл қўймаслик тўғрисидаги ЕИИ Директиваси (1991 йил 10 июнь);

8) Пулни тозалашга қарши Париж декларацияси (Европа Иттифоқининг пулни тозалашга қарши парламентар конференциясининг Якуний декларацияси 2002 йил 8 февраль

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги доирасида коррупцияга қарши кураш борасида қабул қилинган ҳужжатлар:

- 1) Жинойтчиликка қарши курашда Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига иштирокчи-давлатларнинг ҳамкорлиги тўғрисидаги Келишуви (Москва, 1998 йил 25 ноябрь);
- 2) “Коррупцияга қарши сиёсатнинг қонунчилик асослари тўғрисида”ги Намунавий қонуни (МДҲ Парламенлараро ассамблеясининг XXII пленар йиғилишида қабул қилинган 2003 йил 15 ноябрь);
- 3) “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги Намунавий қонуни (МДҲ Парламенлараро ассамблеясининг XIII пленар йиғилишида қабул қилинган 1999 йил 3 апрель);
- 4) “Ғайриқонуний йўлдан олинган даромадларни легаллаштиришга қаршилик қилиш тўғрисида”ги Намунавий қонуни (МДҲ Парламенлараро ассамблеясининг XII пленар йиғилишида қабул қилинган 1998 йил 8 декабрь);
- 5) “Уюшган жинойтчиликка қарши кураш тўғрисида”ги тавсиявий қонунчилик акти (МДҲ Парламенлараро ассамблеясининг қарори билан қабул қилинган 1996 йил 2 ноябрь).

Департамент органлари томонидан 2018 йилнинг биринчи ярмида таълим тизими билан боғлиқ коррупция, фирибгарлик, мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш каби ҳолатлар бўйича жами 83 та жиноят иши кўзғатилган, — дейди Бош прокуратура ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаментининг бўлим катта инспектори Адҳам Исмоилов. — Ушбу жиноятларнинг 16 таси умумтаълим мактабларида, 31 таси олий ўқув юртларида, 36 таси ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида содир этилган. Таҳлилларга кўра, таълим тизимидаги коррупция ҳолатлари, асосан, ўқув юртларида янги ўқув йили учун қабуллар бошланган даврга (49 та ҳолат) тўғри келади. Хусусан, жорий йилнинг январь ойида 5 та, февраль ойида 16 та, март ойида 11 та, апрель ойида 10 та, май ойида 16 та ва июнь-июль ойларида эса 25 та ҳолат фош этилган.